



Bobomurod ADILOV,
O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi
E-mail: dokument0102@mail.ru

F.f.d O'.Tilavov taqrizi asosida

«KOMIL INSON» KONSEPSIYASI NAJMIDDIN KOMILOV TALQINIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada professor Najmiddin Komilovning tasavvuf falsafasi, xususan, komil inson konsepsiyasiga oid ilmiy qarashlari tahlil qilingan. Tadqiqotda tasavvuf antropologiyasining diniy-falsafiy asoslari, tasavvuf ta'limotini o'rganish metodologiyasi va komil inson nazariyasining zamonaviy talqinlari yoritilgan. Mutafakkirning tasavvuf manbalariga qiyosiy-germenevtik yondashuvi orqali tasavvufning ma'rifiy-axloqiy jihatlari hamda inson kamolotining ruhiy-falsafiy mezonlari ochib berilgan. N.Komilov ishlarida tasavvufning ontologik, gnoseologik va antropologik qatlamlari ajratilib, komil inson martabasining ilmiy-nazariy talqini takdim etilgan.

Kalit so'zlar: Tasavvuf, komil inson, antropologiya, ontologiya, gnoseologiya, ma'rifat, Najmiddin Komilov, irfon, vahdat ul-vujud, tasavvuf etikasi, axloq, ruhiyat.

КОНЦЕПЦИЯ «СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА» В ИНТЕРПРЕТАЦИИ НАДЖМИДДИНА КОМИЛОВА

Аннотация

В данной статье анализируются научные взгляды профессора Наджмиддина Комилова на философию суфизма, в частности, на концепцию совершенного человека. В исследовании освещаются религиозно-философские основы суфийской антропологии, методология изучения суфийского учения и современные интерпретации теории совершенного человека. С помощью сравнительно-герменевтического подхода мыслителя к суфийским источникам раскрываются познавательные-этические аспекты суфизма и духовно-философские критерии совершенствования человека. В работах Н.Комилова выделяются онтологические, гносеологические и антропологические слои суфизма и представляется научно-теоретическая интерпретация статуса совершенного человека.

Ключевые слова: Суфизм, совершенный человек, антропология, онтология, гносеология, просвещение, Наджмиддин Комилов, ирфан, вахдат аль-вуджуд, суфийская этика, нравственность, духовность.

THE CONCEPT OF THE «PERFECT HUMAN» IN THE INTERPRETATION OF NAJMIDDIN KOMILOV

Annotation

This article analyzes Professor Najmiddin Komilov's scholarly views on Sufi philosophy, particularly his interpretation of the concept of the Perfect Human. The study illuminates the religious-philosophical foundations of Sufi anthropology, the methodology for studying Sufi teachings, and modern interpretations of the theory of the Perfect Human. The thinker's comparative-hermeneutic approach to Sufi sources reveals the cognitive-ethical aspects of Sufism and the spiritual-philosophical criteria for human perfection. Komilov's works differentiate the ontological, epistemological, and anthropological layers of Sufism and present a scientific-theoretical interpretation of the status of the Perfect Human.

Key words: Sufism, Perfect Human, anthropology, ontology, epistemology, enlightenment, Najmiddin Komilov, irfan, wahdat al-wujud, Sufi ethics, morality, spirituality.

Kirish. Tasavvuf ta'limoti Sharq falsafiy tafakkur tarixida alohida o'rin tutadi. Bu ta'limot asrlar davomida rivojlanib, shakllanib, inson hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatgan keng qamrovli ma'naviy-ma'rifiy tizim sifatida hozirgi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Professor Najmiddin Komilovning ilmiy merosini o'rganish orqali tasavvuf falsafasining o'ziga xos jihatlari chuqur anglash mumkin. Ayniqsa, uning komil inson konsepsiyasiga oid talqinlari tasavvuf antropologiyasining muhim qirralarini ochib beradi.

Tasavvuf falsafasi va unda komil inson konsepsiyasini o'rganish bugungi globalashuv davrida insonning o'z-o'zini anglashi, ma'naviy kamolot yo'llarini izlashi uchun muhim ahamiyatga ega. N.Komilov asarlarida tasavvuf ta'limotining faqatgina diniy e'tiqodga emas, balki inson ruhiyatining chuqur qatlamlariga va ijtimoiy-falsafiy asoslarga tayanishini asoslab beradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, N.Komilovning tasavvuf falsafasi, xususan, komil inson

konsepsiyasiga oid talqinlari orqali o'zbek falsafiy tafakkuri tarixining muhim qirralarini yoritish mumkin. Bu esa zamonaviy falsafiy tafakkur rivoji uchun qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tasavvuf falsafasi, uning mohiyati va komil inson konsepsiyasi ko'plab olimlar, faylasuflar va tadqiqotchilar diqqatini jalb etgan mavzu hisoblanadi. Professor Najmiddin Komilov ushbu mavzuni o'z tadqiqotlarida atroflicha yoritgan.

N.Komilovning fikricha, «tasavvuf biror-bir falsafiy tizim o'rni egallashga da'vo qilgan emas. U, bir tomondan, diniy, ikkinchi tomondan, falsafiy-irfoniy qarashlardan oziqlangan o'ziga xos ta'limot va axloqiy» [1] yo'nalish sifatida shakllangan. Bu fikr tasavvuf falsafasining ko'p qirraliligini ko'rsatadi, chunki unda nafaqat diniy, balki falsafiy, irfoniy va axloqiy komponentlar uyg'unlashgan.

Najmiddin Komilov tasavvufning genezisi va falsafiy asoslarini tahlil qilar ekan, uning bir necha manbalarga tayanishini ko'rsatib o'tadi: «Islomiy tafakkur. N.Komilov

Tasavvufni Islom dinining ma'naviy va axloqiy asoslari bilan aloqadorlikda ko'radi. U Tasavvufning insonni o'zligini kashf etishga, ruhiy yuksalish va Xudo bilan bog'lanishga yordam berishini ta'kidlaydi» [3]. Demak, N.Komilov tasavvuf falsafasining poydevorida islom ta'limotidagi insonning o'z-o'zini anglash, ruhiy kamolot va ilohiy haqiqatga intilish kabi g'oyalar yotishini ta'kidlaydi.

N.Komilov tasavvufning falsafiy asoslarida Qadimgi Yunon falsafasining ta'sirini ham e'tirof etadi: «Yunon falsafasi ta'siri. N.Komilov Tasavvufda Qadimgi Yunon falsafasi va boshqa falsafiy ta'limotlarning ta'sirini inkor etmaydi. U Tasavvuf va islomiy tafakkur o'rtasida mavjud bo'lgan o'zaro aloqalarni o'rganadi, lekin bu ta'sirni Tasavvufning mohiyatini o'zgartiruvchi deb hisoblamaydi» [3]. Bu fikr tasavvuf falsafasining sintetik tabiatini ko'rsatadi, ya'ni u turli falsafiy yo'nalishlardan oziqlangan bo'lsa-da, o'z mohiyatini saqlab qolgan.

N.Komilov ta'kidlashicha, «Tasavvufning rivojlanishi ijtimoiy va madaniy sharoitlarga ham bog'liq. N.Komilov Tasavvuf ta'limotining o'zgarishlariga ta'sir yetkazgan ijtimoiy va madaniy omillarni ham o'rganadi» [4]. Bu metodologik yondashuv tasavvuf ta'limotining tarixiy va ijtimoiy kontekstda shakllanganini ko'rsatadi.

Olim tasavvuf falsafasini o'rganishda uning tajribaviy asoslariga alohida e'tibor qaratadi: «Tajribaviy asoslar. Tasavvufda amaliy tajriba va botiniy-ruhiy holatlar ham muhim omil hisoblanadi. Sufiylar o'z amaliy tajribalari va» [4] ruhiy kechinmalariga tayangan holda falsafiy tizimlarini yaratganlar. Bu esa tasavvufni nafaqat nazariy, balki amaliy-tajribaviy ta'limot ekanligini ko'rsatadi.

N.Komilov tasavvufshunos olim sifatida o'zining tadqiqotlarida tasavvuf asarlarini keng miqyosda tahlil qiladi: «N.Komilov Tasavvuf va psixologiya o'rtasidagi munosabatni aniqlashga katta ahamiyat bergan. U so'fiylikning insonning ichki holatini, ruhiy holatlarini qanday tartibga solish, ularni yaxshilash va yo'lga qo'yish» [6] masalalarini o'rganan. Bu yo'nalish tasavvufning psixologik aspektlarini ochib beradi.

N.Komilovning tasavvuf falsafasi va adabiyotiga oid tadqiqotlarida bir nechta ilmiy-metodologik yondashuvlar mavjud: «Ontologik va ma'rifatshunoslik yondashuv. N.Komilov insonning asli, yaratilish mohiyati va Mutlaq Ruhga yaqinlashish jarayonini ontologik va ma'rifatshunoslik asosida yoritadi» [5]. Bu yondashuv inson borlig'ining mohiyati va uning ilohiy haqiqatga intilish yo'llarini falsafiy tahlil qilishga imkon beradi.

N.Komilov Alisher Navoiy tasavvufining falsafiy jihatlarini tahlil qilishda: «ko'proq uning «ishq» (ilohiy ishq), «haqiqat», va «adab» haqidagi qarashlarini talqin qilishga harakat qiladi» [9]. Bu yondashuv N.Komilovning tasavvuf falsafasini konkret mutafakkirlar asarlari tahlili orqali ochib berishga urinishi bilan ahamiyatli.

N.Komilov tasavvufning ma'naviy-axloqiy jihatlarini haqida fikr yuritir ekan: «Xalqqa rahbar bo'lish uchun inson o'z qalbini ilohiyot nuri va ma'rifat bilan ziynatlashi lozim ekan» [2]. Bu fikr tasavvufning shaxs kamoloti va axloqiy takomilidagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Professor N.Komilovning tasavvuf falsafasiga oid tadqiqotlarining xususiyatlari sifatida: «Manbaviy-tarixiy tahlil – tasavvufiy-irfoniy merosga e'tibor. Axloqiy-ekzistensial yondashuv – insonning ichki olamiga ruhiy yuksalish nuqtai nazaridan qarash. Interdisiplinar usul – falsafa, psixologiya, tarix, adabiyot va diniy bilimlar uyg'unligi» [18] kabi jihatlarini sanab o'tish mumkin.

Tasavvuf antropologiyasi masalalariga to'xtalganda, N.Komilov «insonning boshqalar uchun foyda keltirishi, jamiyat manfaatini o'z nafsini ustun qo'yishi orqali komillikka

yeta olishini ta'kidlaydi» [19]. Bu fikr komil inson g'oyasining ijtimoiy ahamiyatini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar. Professor Najmiddin Komilovning tasavvuf falsafasidagi komil inson konsepsiyasiga oid ilmiy qarashlari nihoyatda keng qamrovli, serqirra va chuqur mazmunga ega. Uning ilmiy tafakkurining boy merosi turli yo'nalishlarda namoyon bo'lib, ularning barchasi tasavvuf falsafasini har tomonlama anglashga xizmat qiladi. Tahlil natijalari quyidagi muhim yo'nalishlarda umumlashtirilishi mumkin:

N.Komilov tasavvufni tor doiradagi diniy amallar majmuasi sifatida qaramaydi, balki uni keng qamrovli va murakkab tuzilishga ega falsafiy-irfoniy tizim sifatida chuqur tushunadi va talqin qiladi. Uning ilmiy metodologiyasida tasavvufning diniy asoslari, albatta, e'tiborga olinadi va hurmat bilan o'rganiladi, ammo ilmiy tahlilda falsafiy talqin va tasavvufning falsafiy mohiyatini ochib berish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Olimning nuqtai nazarida tasavvuf – bu insonning ilohiy haqiqatga izchil intilishi, o'z-o'zini teran anglash va ma'naviy yuksalishning mukammal yo'lidir. Bu jihat tasavvufni faqatgina ibodat yoki zo'hdlikdan farqlab, uni ma'naviy-axloqiy kamolot yo'li sifatida tushunishga asos bo'ladi.

N.Komilovning chuqur ilmiy yondashuvida tasavvuf islomiy tafakkur doirasida paydo bo'lgan hodisa sifatida ko'riladi, ammo u faqat islom bilan cheklanib qolmaydi – tasavvuf ta'limoti o'z mohiyatida universal falsafiy qadriyatlarini ham chuqur o'zlashtirgan va o'ziga xos tarzda ifodalagan. Olim tasavvuf falsafasining shakllanishi va uzoq davr mobaynidagi rivojlanish jarayonlarida qadimgi yunon falsafasi, hind irfoniy ta'limotlari va boshqa falsafiy tafakkur maktablarning muayyan ta'sirini ham xolisona e'tirof etadi, lekin shu bilan birga ushbu ta'sirlar tasavvufning asl ichki mohiyatini, uning o'ziga xos ruhini va asosiy tamoyillarini o'zgartirmaganligini alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Bu nuqtai nazar tasavvufni o'rganishda muvozanatli va obyektiv yondashuv namunasidir.

Olim o'z izlanishlarida tasavvuf ta'limotining metafizik (hissiy olamdan yuqori bo'lgan borliqni anglash), ontologik (borliqning tabiati), gnoseologik (bilish nazariyasi) va antropologik (inson mohiyati) jihatlarini bir-biridan ajratgan holda emas, balki kompleks ravishda, yaxlit tizim sifatida atroflicha o'rganadi. Bunday tizimli va har tomonlama yondashuv tasavvufning ko'p qatlamli va murakkab mohiyatini to'liq ochib berishga, uning ichki tuzilishini va turli qatlamlarini aniqlashga xizmat qiladi. N.Komilov tasavvuf falsafasini to'laqonli va chuqur tushunish uchun uni turli razurslardan, turli nuqtai nazarlardan ko'rish va o'rganish lozimligini alohida ta'kidlaydi. Bu ko'p o'lchovli qarash tasavvufning mohiyatini to'liq anglashga yordam beradi.

N.Komilov tasavvufning nazariy jihatlarini bilan birga, uning tajribaviy asoslariga ham alohida katta e'tibor qaratadi. Uning chuqur ilmiy xulosalariga ko'ra, tasavvuf nafaqat nazariy-falsafiy ta'limot, balki amaliy-ruhiy tajriba, yashash tarzi va ma'naviy amaliyot hamdir. Aynan shu sababli u so'fiylarning ruhiy tajribalari, ularning botiniy kechinmalari va ma'rifatga erishish yo'llarini ham diqqat bilan o'rganadi va shu asosda tasavvuf falsafasining nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatini, uning inson ruhiyati va ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni ham batafsil ochib beradi. Bu amaliy jihat tasavvufni faqat mavhum nazariyadan amaliy hayotga olib chiqadi.

N.Komilovning fundamental tadqiqotlarida tasavvuf falsafasining ontologik va gnoseologik asoslari ham chuqur va har tomonlama tahlil qilinadi. U tasavvufdagi «Vahdat ul-vujud» (borliqning birligi) ta'limotini sirli metafizik doktrina sifatida emas, balki ma'naviy-irfoniy tajriba sifatida tushunarli

va ilmiy talqin qiladi. Bu talqin Ibn al-Arabiyning murakkab metafizik yondashuvi va tizimidan farqli ravishda, borliqning birligi haqidagi teran g'oyani nazariy tushuncha emas, balki inson qalbida bevosita mushohada qilinadigan, ruhan his etiladigan va kechinma orqali anglanadigan amaliy ichki tajriba sifatida talqin qilishga asoslanadi. Bu yondashuv tasavvuf ontologiyasini keng auditoriya uchun tushunarli qiladi.

Borliq tushunchasi N.Komilov talqinida muhabbat va irfon tushunchalari bilan chambarchas bog'liq. Uning fikricha, olam – muhabbatning mahsuli va natijasi, inson esa bu sirli va go'zal olamning tiniq ko'zgusi sifatida tushuniladi. Bu ta'limot shunchaki quruq nazariy-ontologik konsepsiya emas, balki irfoniy mushohada, ruhiy tajriba va ma'naviy kechinmalar asosida paydo bo'ladigan va rivojlanadigan chuqur falsafiy qarashdir. Shu orqali Komilov tasavvuf ontologiyasining tajribaviy asoslarini ochib beradi.

N.Komilovning gnoseologik qarashlarida bilim olish jarayoni ratsional va irfoniy usullarning o'zaro uyg'unligi, bir-birini to'ldirishi orqali amalga oshadi. U Umar Xayyom ijodi haqida teran fikr yuritarkan: «Umar Xayyom ruboiylari ichida ham biz Abu Said Abul Xayr, Avhaduddin Kirmoniy, Xoja Hofiz ruboiylari kabi so'fiyona g'oyalarni ifodalaganlari bor. Shuning uchun aslida sof ratsionalizm tarafdori bo'lgan olimlar ham Tasavvufning orifona yo'nalishini o'ziga xos bir yo'l, deb qabul qilganini ko'ramiz. Umuman, bizning tariximizda falsafiy tafakkur bilan badiiy tafakkur baqamti rivojlangani kabi, aqliy (ratsional) va vajdiy (irratsional) bilimlarni egallash ham birga rivojlangan». Bu teran fikr tasavvufning gnoseologik plyuralizmini, ya'ni bilim olishda turli yo'llarning mavjudligini va ularning bir-birini to'ldirishini yaqqol ko'rsatadi. Bu yondashuv tasavvufni ham ratsional, ham irfoniy bilim olish usullarini e'tirof etuvchi keng qamrovli ta'limot sifatida ochib beradi.

N.Komilovning tasavvuf falsafasiga bag'ishlangan ko'plab fundamental tadqiqotlarida markaziy va muhim o'rin komil inson konsepsiyasiga ajratilgan. Bu tasavvufshunos olim uchun alohida qiziqish uyg'otgan va u bu konsepsiyani turli davrlarda yashagan va turli yo'nalishlarda ijod qilgan mutafakkirlar qarashlari asosida atroflicha qiyosiy tahlil qiladi. Bu tahlil orqali tasavvufdagi komil inson tushunchasining rivojlanish tarixi va uning turli talqinlari yoritiladi.

Olimning chuqur ilmiy talqinida komil inson g'oyasi islomiy ta'limotdagi insonning «ashraf ul-maxluqot» (yaratilganlarning eng sharaflisi, eng yuksagi) degan fundamental tushuncha bilan bevosita bog'liq. N.Komilov o'z asarlarida shunday yozadi: «modomiki inson ikki olam sarvari, sharaful maxluqot ekan, bu uning ilohiy-rahmoniy jihatiga qarab aytilgan gap bo'lib, Komil insonga ishoradir. Komil inson – jamiiki insonlarning haqiqatidir». Bu fikr komil inson konsepsiyasining mohiyatini ochib beradi – komil inson

tushunchasi barcha insonlarning ichki imkoniyatlari va ilohiy mohiyatining ro'yobga chiqishidir. Shu ma'noda, har bir inson komillikka intilishi mumkin va bu tasavvufning insonparvar mohiyatini ko'rsatadi.

N.Komilov talqinida komil inson tasavvufning asl maqsadidir, chunki bu martabaga erishgan inson haqiqiy ma'noda ilohiy mushohada va kamolotga erishadi. Komil inson Xudo va olam o'rtasidagi ko'priq, ilohiy sifatlarining insoniy darajadagi namoyon bo'lishidir.

Xulosa va takliflar. Professor Najmiddin Komilovning tasavvuf falsafasidagi komil inson konsepsiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlarini chuqur va har tomonlama tahlil qilish natijasida quyidagi asosli xulosalarni shakllantirish mumkin:

Birinchidan, N.Komilov tasavvufni diniy, falsafiy va madaniy jihatlardan kompleks o'rganadi. Uning qiyosiy-tarixiy, germenevtik va fenomenologik metodologiyasi tasavvufni tor doiradagi diniy ta'limot emas, balki inson ma'naviy kamolotining universal falsafiy konsepsiyasi sifatida tushunishga yordam beradi. Komilov tasavvufning diniy ildizlarini tan olsa-da, uning falsafiy va madaniy ahamiyatini ustuvor qo'yadi.

Ikkinchidan, N.Komilov vahdat ul-vujud ta'limotini irfoniy tajriba nuqtai nazaridan chuqur talqin qiladi. Uningcha, borliq birligi haqidagi ta'limot nazariy emas, balki so'fiyning shaxsiy tajribasi orqali anglanadi. Bilish nazariyasida esa aqliy va irfoniy usullar qarama-qarshi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi, dialektik bog'liq jarayonlar sifatida talqin etiladi.

Uchinchidan, olim komil inson konsepsiyasini tizimli tahlil qilib, uni ruhiy-axloqiy yuksalish, ilmiy ma'rifat, ijtimoiy fidoiylilik va ilohiy muhabbat sintezi sifatida tasvirlaydi. Uningcha, komil inson nafaqat individual kamolotga erishgan, balki jamiyatni ma'rifatlashtiruvchi shaxsdir, bu esa tasavvufning ijtimoiy ahamiyatini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, N.Komilovning yondashuvi an'anaviylik va zamonaviylikni uyg'unlashtiradi. U tasavvufiy matnlarni o'rganishda tarixiy an'analarga tayanadi, ammo ularni zamonaviy falsafiy tushunchalar orqali talqin qiladi. Bu tasavvufni yangilanuvchi, rivojlanuvchi falsafiy maktab sifatida namoyish etadi.

Beshinchidan, u tasavvufni falsafa, psixologiya, adabiyotshunoslik, tarix va dinshunoslik kesimida interdisiplinar o'rganadi. Bu yondashuv tasavvufni ko'p qirrali hodisa sifatida tushunishga imkon beradi.

Oltinchidan, N.Komilov tasavvuf etikasini insonning axloqiy kamoloti sifatida talqin etadi. Uningcha, tasavvuf axloqi nafaqat individual, balki jamiyatga faol xizmat ko'rsatish va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan universal ahamiyatga ega ta'limotdir.

ADABIYOTLAR

1. Komilov N. Ibn Arabiy Abdurahmon Jomiy talqinida. / Xolmo'minov J.M. Jomiy va Vahdat ul-vujud ta'limoti (Monografiya). – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – B.4.
2. Komilov N. Muqaddima. / Komil inson haqida to'rt risola. Fors-tojik tilidan Najmiddin Komilov tarjimai. – Toshkent: «Ma'naviyat», 1997. – B.4.
3. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: "Movarounnahr" – "O'zbekiston", 2009. – B.250.
4. Komilov N. Tasavvuf. Ikkinchi kitob: Tavhid asrori. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti; "O'zbekiston". 1999. – B. 53.
5. Komilov N. Najmiddin Kubro. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1995. – B. 21.
6. Xolmo'minov J. Tasavvuf ontologiyasi (Monografiya). – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti; "Yosh avlod matbaa", 2021. – B.4.
7. Xolmo'minov J. Qiyosiy tasavvufshunoslik (Monografiya). – Toshkent: "Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti", "Yosh avlod matbaa", 2021. – B.27.
8. Komilov N. Mardlik tariqati (Javonmardlik haqida) // «Tafakkur», №1. 1994. – B. 65.
9. Komilov N. Tafakkur karvonlari. – Toshkent: "Ma'naviyat", 1999. – B.205.
10. Xolmo'minov J. Sharq va G'arb: tamaddunlar muloqoti. Falsafiy esselar. "Shafolat-nur fayz", 2023. – B.89-90.